



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 02.05.2023 yildagi 181-son

Kuchga kirish sanasi

03.05.2023

Qo'shimcha axborot

Ulashish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

DAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARI, RESPUBLIKADAGI XORIJIY VA NODAVLAT OLIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARINI MODDIY HAMDA IJTIMOY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2021-yil 9-sentabrdagi PF-6309-son **Farmoni**, "Ijtimoiy himoyaga va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 29-apreldagi PQ-230-son **qaroriga** muvofiq davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlarida, respublikadagi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan talabalarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalarga ijtimoiy ta'minot yordami mablag'larini moliyalashtirish tizimini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Quyidagilar:

Davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi talabalarini uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilansinki, ushbu qaror ijrosini ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar 2023-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtiriladi, 2024-yildan boshlab esa Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri I.Y. Abduraxmonov hamda iqtisodiyot va moliya vaziri Sh.D. Kudbiyev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2023-yil 2-may,
181-son

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 2-
maydagi 181-son **qaroriga**
1-ILOVA

Davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun (davlat oliy ta'lim muassasalari va Davlat budjeti hisobidan moliyalashtiriladigan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallaridan tashqari) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalarini moliyalashtirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tashkilot — davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari, respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari, nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari;

talaba — davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan hamda respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining filiallari va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari bakalavriat bosqichi talabalari;

stipendiya — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari.

2-bob. Stipendiyalarni moliyalashtirish tartibi

4. Tashkilot talabalari uchun stipendiyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan budjet mablag'lari doirasida (48 21 190 boshqa xarajatlar moddasi bo'yicha) ajratiladi va moliyalashtiriladi. Bunda:

tashkilot — har yili 15-oktabrga qadar joriy o'quv yili uchun stipendiya oluvchi talabalar soni hamda ularga to'lanadigan stipendiya miqdorini hisoblaydi va budjetdan zarur mablag'lar ajratilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga so'rovnoma kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi — har yili 1-noyabrga qadar tashkilot tomonidan taqdim etilgan so'rovnomalarga asosan joriy o'quv yili uchun stipendiya to'lovlari sarflanadigan mablag'larni to'liq hajmda ularning hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

5. Davlat oliy ta'lim muassasalarining qo'shma ta'lim dasturlari asosida tahsil olayotgan bakalavriat bosqichi talabalari uchun stipendiya mablag'lari ushbu muassasalarning budjet xarajatlar smetasida nazarda tutiladi.

3-bob. Stipendiyalarni tayinlash va to'lash tartibi

6. Tashkilot talabalari uchun stipendiyalar Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 13-oktabrdagi 226-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan Bakalavriat bosqichi talabalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari hamda ularni tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom asosida tayinlanadi.

7. Stipendiyalarni to'lash bilan bog'liq xarajatlar talabalarining davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotganidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi hamda stipendiya sohiblariga belgilangan miqdorlarda stipendiya tayinlanadi va to'lanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

8. Tashkilot rahbarlari budjetdan stipendiya to'lovlari uchun ajratilgan mablag'lar o'z vaqtida talabalarga oyma-oy to'lab borilishini ta'minlashga shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirish tartibi to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish uchun mablag'larni moliyalashtirish tartibini belgilaydi.

2. Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talabalarga oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalarini xarid qilish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar hisobidan qoplanadi.

3. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

tashkilot — nodavlat oliy ta'lim tashkiloti;

talaba — nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan talaba;

ijtimoiy ta'minot yordami — oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya vositalari.

2-bob. Ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag'larni moliyalashtirish tartibi

4. Tashkilot talabalariga ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ushbu maqsadlar uchun rejalashtirilgan budjet mablag'lari doirasida (48 21 190 boshqa xarajatlar moddasi bo'yicha) ajratiladi va moliyalashtiriladi. Bunda:

tashkilot — har yili 15-sentabrga qadar joriy o'quv yilida ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag' oluvchi talabalar soni hamda ularga to'lanadigan ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag' miqdorini hisoblaydi va budjetdan zarur mablag'lar ajratilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga so'rovnomani kiritadi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi — har yili 1-oktabrga qadar tashkilot tomonidan taqdim etilgan so'rovnomalarga asosan amaldagi o'quv yili uchun ijtimoiy ta'minot yordami to'lovlariga sarflanadigan mablag'larni to'liq hajmda ularning hisobvarag'iga o'tkazib beradi.

3-bob. Ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag'larni tayinlash va to'lash tartibi

5. Tashkilot talabalariga ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag'lar Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta'lim olayotgan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizom asosida moliyalashtiriladi.

6. Ijtimoiy ta'minot yordami uchun mablag'larni to'lash bilan bog'liq xarajatlar talabalarning davlat granti yoki to'lov-kontrakt asosida ta'lim olayotganidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi va belgilangan miqdorlarda to'lanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

7. Tashkilot rahbarlari ijtimoiy ta'minot yordami to'lovlari uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida talabalarga oyma-oy to'lab borilishini ta'minlashga shaxsan javobgar hisoblanadi.

8. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.05.2023-y., 09/23/181/0246-son)

 **Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz** **100 mln** so'mgacha Kredit foizi: 26%-30% gacha
Kredit muddati: 2-48 oygacha 